

YOSHLARNING SIYOSIY FAOLLIGIGA OID BO'LGAN NAZARIY VA  
METODOLOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI

Qayumov Lazizjon Baxtiyorovich

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi*

*Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi*

*Loyiha boshqaruvi(Project management)*

*yo'nalishi magistr talabasi*

*Telefon: +998 90 731 72 07*

*G-mail: qayumovlazizjon@gmail.com*

*Annotatsiya: Maqola yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash portalini yaratish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish, hamda ularning O'zbekistonda amaliyotga tadbiiq etish uchun mexanizmlarini ishlab chiqish, xulosa va takliflar berishdan iborat.*

*Kalit so'zlari: g'oya, loyiha, demokratika, erkinlik, jamiyat, tashabbus, ma'naviyat.*

Jahon tarixiy tajribasidan, xususan o'zbek xalqi tarixiy tajribasidan ma'lumki, u uzluksiz va mashaqatli kurash natijasida vujudga keladi va takomillashib boradi. O'zbek xalqiga davlat hokimiyatining demokratik turini barpo etish uchun bir yarim asrga yaqin vaqt kerak bo'ldi.

Bizga ma'lumki, jamiyat hayotining demokratlashuvi bu turli bosqichlardan iborat bo'lgan islohotlar, jamiyatdagi mavjud xususiyatlar va tajribalardan kelib chiqib faollashadi.

Jamiyat hayotining demokratlashuvida o'ziga xos bir qator shart-sharoitlar talab qilinib, ular quyidagilardan iborat:

- xalq tomonidan saylanadigan oliy vakillik organining mavjudligi;
- erkin saylash va saylanishning mavjudligi;
- muqobil nomzodlardan iborat bir necha partiyalardan iborat siyosiy tizimning mavjudligi;
- o'zini-o'zi boshqarish organlarida saylashning mavjudligi;
- ommaviy axborot vositalari erkinligi, fikrlar xilma-xilligining mavjudligidir .

Jamiyat a'zolarining manfaatlari mushtarakligi jamiyat hayotini o'zgartirishga sabab bo'ladi.

XII asrda yashagan Saljuquylar davlati vaziri Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" (Siyar ul-mulk)sida raiyat ahli zulmu sitam ko'rgan har bir kishi umuman norozi bo'lganlar amaldor va hokimdan tortib to vazirga va shohning o'zigacha qabullariga borib shikoyat yoki maslahatini bayon qilishlari zarur deb ta'kidlagan.

Demak, yoshlar o'rta asrlardayoq o'zlarining hayotiy masalalardagi muammolarini mansabdorlarga shikoyat va takliflari yuzasidan murojaat qilishgan.

AQShlik siyosatshunos S.Xantington siyosiy faoliyatlarda siyosiy institutlashuvning ahamiyati to'g'risida shunday deydi, ya'ni "Siyosiy tizimlar o'zaro siyosiy institutlashuv

darajasi va siyosiy faoliyatda yoshlar ishtiroki darajasi bilan ajralib turadi.

Siyosiy faollik past darajadagi jamiyatda siyosiy institutlashuv ham past darajada bo'ladi.

Shundan kelib chiqib, Siyosiy barqarorlik jamiyatdagi siyosiy faollikning siyosiy institutlashuvdagi munosabatiga bog'liqdir degan tushuncha paydo bo'ladi" .

Siyosiy barqarorlikni ta'minlashni istasak, siyosiy faollikning ortishi bilan jamiyatda siyosiy institutlarning murakkabligi, avtonomligi, moslashuvchanligi, muvofiqligini ham oshirish lozim.

S.Xantington siyosiy institutlashuv darajasi past bo'lgan jamiyatda siyosiy faoliyat ijtimoiy kuchlar tomonidan boshqariladi va bunday siyosiy tizimni "pretorian jamiyati" deb ataydi.

Jamiyatning bugungi kuni va rivojlanishi zaminida shaxsning amaliy siyosiy faoliyati yotadi. Jamiyat shaxsning har qanday maqsad va manfaatlarini, talab hamda ehtiyojlarini to'liq darajada qondira olmaydi. Shunga ko'ra, har bir shaxs o'zining siyosiy onglik darajasini oshirib borishga va shu asosda jamiyatga ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi.

Shaxsning jamiyatga qiladigan ta'sir kuchi oshgani sari, uning siyosiy faolligi ham takomillashib boradi. Haqiqatdan ham jamiyatda yoshlarning faol bo'lishiga birinchi sabab bu yoshlarning mavjud ehtiyoj va muammolarning yechimini topishda jamiyat hayotiga ta'sir qilish yo'lini tushunib yetishidir.

Siyosiy fanlar nomzodi B.Jo'rayev jamiyat demokratlashuvi jarayonlarining yoshlar tomonidan idrok etilishi, ularning siyosiy hayotda ishtirok etishiga qarab yoshlarni shartli ravishda "siyosiy faol" va "faol bo'lmagan" guruhlariga bo'lgan. Siyosiy faol degan yoshlarni demokratik jarayonlarga o'z hissasini qo'shayotgan, hayotiy o'zgarishlarga befarq bo'lmagan, ma'lum bir fuqarolik jamiyati instituti a'zosi bo'lgan, jamiyatdagi zararli illatlarga qarshi fikrlay oladigan yoshlarni nazarda tutgan. Albatta bu ham yoshlardagi faollikni belgilaydigan o'ziga xos mezon vazifasini o'taydi.

Bugungi kunda butun jamiyat yoshlari faolligi darajasini o'rganish, avvalo uning mezonlarini belgilash lozim. Shundagina jamiyatning siyosiy faollik darajasi aniqlanadi.

Bu to'g'risida siyosiy fanlar doktori M.Qirg'izboev ham shunday deydi; - "Yoshlar faolligini oshirishda ularning siyosat va hokimiyat hodisalariga nisbatan shaxsiy munosabatlarini ifodalovchi baholash hukmlari ahamiyatga molik ma'naviy hodisadir. Bunday shaxsiy-mazmuniy munosabatlarning mavjudligi insonning o'z fuqarolik burchini anglab yetgan siyosiy subyekt sifatida faoliyat ko'rsata olishini ifoda etadi".

Shuningdek, siyosiy fanlar doktori V.Qo'chqorov tomonidan jamiyatni demokratiyalash jarayonida o'zlikni anglash borasidagi ijobiy siljishlar tadqiq etilib, demokratiya obyektiv hodisa sifatida jamiyatning rivojini ta'minlash bilan bir qatorda milliy o'zlikni anglashning yuksalishidagi muhim ahamiyati haqida to'xtaladi.

Haqiqatdan yuqoridagi fikrlarga qo'shilgan holda aytish mumkinki, yoshlarning faolligini oshirish va milliy o'zlikni anglashning yuksalishi orqali jamiyat hayotining demokratlashuvi ham kuchayadi.

G'arb olimi (nemis) Y.Xabermas o'zining siyosiy-huquqiy qarashlarida har qanday qaror qabul qilishda eng muhim omillardan biri bu o'zaro konsensusga (kelishish) erishishdir deb aytadi. Olimning nazariyasiga ko'ra konsensusga erishishning yagona yo'li bu muloqot bo'lib, unda ishtirokchining xohishi yuqori darajada bo'lishi, turli bosim va majburlashlardan himoyalanganligi, fikrlar erkinligi, ishtirokchilar tengligining mavjudligidadir.

Albatta, jamiyatdagi o'zgarishlarda, siyosiy qarorlarda yoshlarning xohish va istagini ro'yobga chiqarish muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda jamiyatdagi har bir faol, ayniqsa siyosiy faol fuqaro har qanday o'zgarishlarda o'z munosabatiga ega bo'lishi va uni yetkaza olish lozim.

Rossiyalik siyosiy fanlar nomzodi Barsegyan Vardan Merujanovichning jamiyatda yoshlar qatlami o'rtasidagi faollik bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlari orqali aniqlashicha jamiyatning har bir yosh a'zosi faolligi avvalo ularning maqsad va manfaatlaridan kelib chiqishini aytadi.

Bu esa yoshlarning siyosiy faoliyatlarda ishtirokidan maqsadi ularning shaxsiy-siyosiy manfaatini qanoatlantirish bo'lib - bu jamiyatdagi mavjud muammoni hal qilishga qaratilgan bo'ladi.

Siyosiy faollikni oshirish uchun avvalo jamiyatdagi mavjud quyidagi ko'rsatkichlarga e'tibor berish lozimligi to'g'risida AQShning Kaliforniya Universiteti siyosiy fanlar doktori, professor, Xari Xen (Hahrie Han) shunday deydi:

- "yoshlar siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi mumkin, agar saylovlardagi jarayonlar osonlashtirilsa, to'siqlar olib tashlansa;

- yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi ehtimol, buning uchun yoshlar siyosiy jarayonlarda ishtirok etishni xohlashi lozim;

- yoshlarning siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi kuchli bo'ladi, agar yoshlarning ishtirok etishidan maqsadi ularning manfaati bilan bog'liq bo'lsa, siyosiy jarayonlarda ishtirok etib siyosiy qaror natijasida sezilarli ta'sir ko'rsata olishi va yoshlar hayotini yengillashtirishga erisha olsa.

Ushbu ko'rsatkichlar orqali yoshlarning siyosiy faolligini oshirish mumkin".

Siyosiy jarayonlarda ishtirok etishning to'siqlaridan biri bu saylovlarda avtomatik ro'yxatdan o'tish tizimining joriy qilinmaganligi, ya'ni onlayn tizimining yo'lga qo'yilmaganligidadir. Lekin, buni barcha davlatda ham amalga oshirishning imkoni mavjud emas, sababi buning uchun barcha ham elektron tizimdan foydalana olmaydi hamda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarga ham bog'liq jarayondir.

Yoshlarning jamiyatdagi siyosiy faolligini oshirish masalasi dolzarbligi borasida AQShlik olim Melissa Mehoney Smiz shunday deydi: - "Garchi demokratik jamiyat Amerikada ham ochiqroq bo'lsada, 1960-yillardan buyon hukumatga bo'lgan ishonch pasayib kelmoqda. Bugungi kunda Amerikaliklarning atigi 20 foizi hukumatga ishonishini aytishmoqda".

Shuning uchun ham bugungi kunda davlatning siyosiy muhiti tashvishlantiradigan darajadami degan savolga javob berish og'irligicha qolmoqda.

Ushbu fikrni davom ettirgan holda yana bir olim Metzzyu Pleyusk "Markaziy va G'arbiy Yevropa davlatlarida internetdan foydalanilishi bu demokratiyaning kuchayishiga sabab bo'ladi" - deydi, ya'ni internet orqali yoshlarning hukumat bilan rasmiy aloqani yo'lga qo'yilishiga erishiladi, deb ta'kidlagan.

Haqiqatdan ham bugungi kunda onlayn faollik tushunchasi vujudga kelgan bo'lib, ushbu tushuncha internetdan foydalangan holda siyosiy jarayonlarga ishtirok etish, tashkillashtirish, siyosiy masalalarda qabul qilinadigan qarorlarga ishtirok etish, ta'sir qilish umuman olganda ma'lum bir masalada markazlashmagan holda ishtirok etish kabilarni o'zida aks ettiradi.

Nyu-York Universiteti doktorlari Dryu Dimmer va Andryu Pittersonlar shunday deyishadi: - "Siyosiy jarayonlarga e'tibor siyosiy faoliyat qo'mitalari tomonidan amalga oshirilsada, keyingi paytlarda siyosiy jarayonlarga ketadigan sarf-xarajatlar ko'payganligini, ushbu xarajatlarning asosiy ta'minlovchisi bu nodavlat notijorat tashkilotlaridir. Faqatgina uchta asosiy yo'nalishdagi ya'ni sog'liqni saqlash (reabilitatsiya va shifoxona), ta'lim (Universitetlarga tegishli), insoniylik xizmatlari (Qizil xoch) kabi NNTlarga siyosiy faoliyatlarga oid jarayonlarga oz miqdorda xarajat qilishadi.

Kongressga yoki Prezidentlik saylovlariga oid bo'lgan siyosiy jarayonlarning xarajatlari bilan bog'liq o'zgarishlar qonunchilik darajasida amalga oshirilib kelinadi, shuningdek, NNTlarning bugungi kundagi siyosiy faoliyatga tegishli bo'lgan xarajatlari oshib bormoqda, bu esa hozirda guruhlarining siyosiy qiziqishlari balandligidan dalolatdir. NNTlarning mavjud masalalari va hududiylikidan kelib chiqib siyosiy faoliyatga keng jalb qilish lozim.

Bizning kelajakdagi qiladigan ishimiz bu kabi NNTlar o'rtasida siyosiy aloqalarni o'rnatishimiz, ularning maqsad vazifalaridan kelib chiqib siyosiy jarayonlardagi strategiyalarni belgilashdir".

Albatta, bugungi kunda NNTlarning siyosiy jarayonlarda yanada faolroq ishtiroki uchun ularning moliyaviy manbalari ya'ni xarajatlari hamda jarayonlarda mos keladigan strategiyalari belgilangan bo'lishi darkordir.

Demokratiyaning vakillari sifatida manfaatdor guruhlariga individuallar, firmalar va boshqa tashkilotlar kiradi. Bu manfaatdor guruhlar petitsiya qonunchiligi, hukumatga rasmiy ta'sir etish kabi yo'llar orqali davlat siyosiy jarayoniga ta'sir etadi. Manfaatdor guruhlar ichida biznes tashkilotlari ta'sir etishda asosiy rol o'ynaydi, ya'ni ushbu iqtisodiy tashkilotlar turli targ'ibot-tashviqot, lobbizm faoliyatlarini qo'llaydi, advokatlik targ'iboti kabi usullar orqali siyosiy faoliyatga ta'sir etishga harakat etadi. Bunday ta'sir etishlar siyosiy jarayonlarda turli olimlar, siyosatchilar, keng jamoatchilik orqali ishtirok etish, hamkorlik qilishni anglatadi.

Biznes tashkilotlari va firmalar siyosiy faoliyatga quyidagicha ishtirok etadilar, ya'ni ular lobbistlarni yollaydilar, siyosiy faoliyat qo'mitasiga e'lon beradilar, targ'ibotlarni qo'llab-quvvatlaydilar, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yadilar, ayniqsa ommaviy axborot vositalari va olimlarni jalb qilinishiga ko'proq e'tiborni jalb qiladilar.

Kompaniyalar odatda ikki xildagi lobbizmdan foydalanishadi, ya'ni birinchisi keng tarqalgan usul bo'lib tegishli mavzudagi masala uchun lobbistlar bilan tuzilgan shartnoma asosidagi lobbizmdan foydalanilsa, ikkinchisiga kompaniya manfaatlarini qo'llaydigan mavjud ishchilardan lobbizmda foydalaniladi. Albatta bunday ta'sir etilishi qaror qabul qilish jarayonida e'tiborga olinadi.

Bugungi kunda yoshlar islohotlarning faol ishtirokchisi, demokratik jarayonlarni rivojlantiruvchi muhim qadriyatlardan biriga aylandi. Yoshlar yangitdan barpo qilinayotgan fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi, uning tarkibiy a'zosi sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatdagi islohotlarning amalga oshirilishini talab etgan ijtimoiy tanglik hamda o'tish jarayoniga xos bo'lgan muammolar yoshlar mavqeiga ijobiy hamda salbiy ta'sir ham o'tkazdi.

Mamlakat mustaqilligining e'lon qilinishi va O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga suveren davlat sifatida kirib borishi bilan aloqador tarzda yoshlar ongida o'z mamlakati taqdiri borasida kuyinish, faxr va iftixor, turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, sport musobaqalarida erishilgan yutuqlardan g'ururlanish, ona Vatanni e'zozlash, bilim va ilmiy imkoniyatlarining behad o'sganligidan sevinch va kelajakka ishonch tuyg'ulari o'tish jarayonlaridagi yoshlar mavqeiga nisbatan bo'lgan ijobiy ta'sirning oqibatlarini sanaladi.

Yoshlar orasida ba'zi yot g'oyalarning tarqalishi, ularning turli diniy oqimlarga kirib qolishi, yoshlar mafkurasida yuzaga kelgan bo'shliq, yoshlar orasida OITS, narkomaniya, toksikomaniyaning paydo bo'lishi, jinoyatchilikning ko'payishi, ishsizlik va uning natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy keskinlik, yoshlarda beqarorlik kayfiyatining ortib borishi, o'z taqdiridan norozilik kabilar yoshlar mavqeidagi salbiy holatlardandir.

Yoshlar hayotida salbiy holatlarning kuchayishi tabiiy ravishda davlat boshqaruvi organlariga nisbatan norozilik kayfiyatining paydo bo'lishiga olib keladi, ularni jamiyatdagi barqarorlik va bunyodkorlik faoliyatidan chetga tortadi, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo'rlik, korrupsiya esa ko'pincha yoshlarning hayotga bo'lgan qiziqishlarini so'ndiradi. Bunday paytda ular tafakkurida hayotning rang-barangligidan ko'ra, dunyoni qora-oq bo'yoqlar orqali ko'rish va anglash, pessimistik kayfiyatlar kuchayadi.

Yoshlar o'rtasidagi ma'naviy qashshoqlik, eng avvalo, moddiy ta'minotning hayotiy mezoniga aylanganligi, moliyaviy ehtiyojni yuqori darajaga qo'yish, individualizm g'oyalarining o'sib borishi, pul topish maqsadida jinoyatdan ham tap tortmaslik, kaltabinlik, boqimandalik, jur'atsizlik, mas'uliyatdan qochish, hamma narsani menga davlat yoki ota-ona yaratib berishi lozim degan egoistik aqida, siyosiy ongning past saviyada ekanligi singari xususiyatlar bilan belgilanadi.

Huquqiy madaniyat esa ijtimoiy hayotda amal qilinadigan rasmiy va norasmiy normalarga rioya etish darajasini ifoda etadigan tushunchadir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek, "jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirish va huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda faol qatnashayotgan insonlarni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim".

Siyosiy - huquqiy madaniyat jamiyatning barcha a'zolariga birdek taalluqli bo'ladi. Ammo ularning bajarish usullarida farq bo'lishi tabiiy holdir. Xo'sh ushbu o'ziga xosliklar ayollarning siyosiy-huquqiy faoliyatida nimalarda aks etadi?

Ijtimoiy borliq har doim ham kishining intilishlariga, ehtiyojlariga mos kelavermaydi, u ushbu borliqni o'zgartirishga qaror qiladi. To'g'ri, u ijtimoiy borliqni butun boricha o'zgartirishga intilmaydi, ayrim olingan shaxs, hatto guruh qo'lidan bu amal kelmaydi. Kishi o'ziga yaqin bo'lgan muhitni, munosabatlarni o'zgartirishi mumkin xolos. Ixtiyoriy ijtimoiy faollik aslida shaxsga yaqin bo'lgan borliqni o'zgartirishni nazarda tutadi.

Masalan, tadbirkor ayollar uyushmalari butun ijtimoiy borliqni emas, balki ayollarga yaqin bo'lgan, ularning tadbirkorligi va ishbilarmonligini rivojlantirishga yordam beradigan muhitni o'zgartirishga, ratsionallashtirishga intiladi.

Har bir millatning kelajagi uning qaysi yo'ldan rivojlanishiga bog'liqdir. Agar uning o'sishi amalda milliy egoizmga olib kelsa, eski milliy siyosat andozalari va tamoyillariga qarshi tabiiy kurash izolyatsionizmga sabab bo'lsa, "o'zlikni anglashning optimistik salohiyati ro'yobga chiqishi mumkin emas". Chunki bu jarayonda milliy mentalitet muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy madaniyat, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar yaxlit hodisa - inson ma'naviy dunyosining muhim omillaridir. Tahlil bu yerda o'rganilmagan jihatlar hali bisyor ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatning, ijtimoiy tizim boshqa subyektlarining ongi tashkillashtirilgan va iyerarxiyaviy tuzilishga ega. Ijtimoiy o'zlikni anglashni tashkillashtirish asoslaridan biri uning elementlarining shaxs faoliyatiga bo'lgan munosabatidir. Milliy o'zlikni anglashning u yoki bu elementlari shaxs, umuman ijtimoiy organizm hayot faoliyatining mavjud sharoitlariga muvofiq borliqning amaldagi qadriyatlariga qayta baho berish asosida etnomilliy birlik hayot faoliyatining yangi maqsadlari yoki ideallarini shakllantirish asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qayerdagi milliy o'zlikni anglashning u yoki bu elementlari bo'lgan ma'naviyatga, madaniyatga, mafkuraga, ma'rifatga e'tibor berilsa, o'sha yerda barkamol avlod yetishib chiqadi. Xalqimizning shu sohada to'plagan boy tarixiy tajribasiga tayanib va unga ijodiy yondashgan holda faqat axloqli insonlar ko'pchilikni tashkil etgan jamiyatdagina yuksak ma'naviyat qaror topishi mumkinligini falsafiy jihatdan asoslab berish lozim. Biroq hozirgi vaqtda bu mavzu mamlakatimizdagi falsafiy fanlarda yetarli darajada ilmiy-tahlil predmetiga aylanmadi, shu bois, maxsus tizimli nazariy tahlilni taqozo etmoqda.